

Kitoblar mangulik xususiyatiga ega. Ular inson faoliyatining eng umrboqiy mevalaridir.



Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqq boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN - 2010-6092

«KIM KO'P KITOB O'QIYDI?» RESPUBLIKA TANLOVIGA MARHAMAT!

Aziz o'quvchilar! Mana, yozgi ta'tilni ham boshlab yubordingiz. Ta'til kunlaringizni yanada maroqli va mazmunli o'tkazishingizga biroz bo'lsa-da, hissa qo'shish maqsadida «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi, «Kamalak» respublika bolalar tashkiloti hamda O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlarining «Tong yulduzi» gazetasi hamkorligida «Kim ko'p kitob o'qiydi?» an'anaviy respublika tanlovini e'lon qilamiz.

Tanlov shartlari quyidagicha:

Ishtirokchilarning surati, o'qigan badiiy kitoblari ro'yxati, maktabdagi eng yaxshi kitobxon o'quvchi ekanligini tasdiqlovchi maktab direktori va sinf rahbarining tavsifnomasi «Tong yulduzi» gazetasi tahririyatiga yuboriladi.

Maktubingizda telefon raqamingizni ko'rsatishni unutmang.

Tanlov 1-oktabr - O'qituvchi va murabbiylar kuni arafasida yakunlanadi.

Tanlovda faol ishtirok eting va eng ko'p kitob o'qiydigan o'quvchi nomini oling.



Maktublaringizni elektron pochta orqali ham jo'natishingiz mumkin. Manzil va elektron pochta gazetamizning chiqish ma'lumotlarida ko'rsatilgan.



SALOMATLIK TARG'IBOTCHILARI

Poytaxtimizning tuman va shahar umumta'lim maktablari o'rtasida har yili an'anaviy tarzda «Salomatlikning yosh do'stlari» musobaqalarining o'tkazilishi O'zbekiston Qizil Yarim Oy jamiyati Toshkent shahar tashkilotining aholi o'rtasida, ayniqsa, yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish hamda ularni favqulodda vaziyatlarga oid bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi yo'lidagi xayrli ishlardan biridir.

Mazkur bellashuvda musobaqaning tuman bosqichida g'olib bo'lgan sanpost a'zolari ishtirok etib, ular yetti shart bo'yicha, ya'ni «Jamoaning safda turish, sanitar sumkasi, sanpost kundaligini tekshirish, raport berish tartibi», «Favqulodda vaziyatlarda jarohatlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish», «Uyda yotoqli bemorlarga yordam berish yuzasidan ko'rgazmali chiqishlar namoyishi», «Shaxsiy va jamoatchilikning ozodalikka oid tadbirlari» yuzasidan bellashdilar. Bellashuvning beshinchi bosqichida yosh hamshiralari dorivor o'simliklar va ularning qo'llanilishi haqida gapirib berishdi. Oltinchi shartda O'zbekiston Qizil Yarim Oy jamiyati tarixi va faoliyati haqida o'rtoqlashdi. So'nggi bosqich yo'l harakati xavfsizligi qoidalari va yo'l harakati hodisasi sodir bo'lganda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish amalda namoyish qilindi.

Musobaqa yakuniga ko'ra, Olmazor tumanidan kelgan 191-umumta'lim



maktabining yosh hamshiralari 1-, Yashnobod tumanining 166-umumta'lim maktabi o'quvchilari 2-, Bektemir tumanidagi 290-umumta'lim maktabi o'quvchilari 3-o'ringa munosib topildi.

Tohir MULLABOYEV,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist

Qutqaruvchilik – mas'uliyatli vazifa. O'quvchilar yoshlikdan favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakat qilishga, o'zi va boshqalarga o'z vaqtida kerakli yordam ko'rsatishga o'rgatib boriladi.

MARDLAR MAYDONI

Yaqinda poytaxtimizning Sergeli tumanidagi Yong'in xavfsizligi Oliy texnik maktabida umumta'lim hamda o'rta-maxsus kasb-hunar ta'limi o'quvchilari o'rtasidagi «Yosh qutqaruvchi» musobaqasining respublika bosqichi bo'lib o'tdi. Final bosqichiga yetib kelgan jamoalar o'rtasida bellashuv qizg'in tus oldi. Hay'at a'zolari natijalarni puxta



o'rganib, g'oliblarni e'lon qilishdi. «Yosh qutqaruvchi» ko'ngillilar klublarining umumta'lim maktablari o'rtasida o'tkazilgan musobaqada Toshkent shahri jamoasi mutlaq g'olib bo'ldi. Andijonliklar ikkinchi, Navoiy viloyati jamoasi uchinchi o'ringa munosib topildi. Shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi jamoasi «Eng yaxshi klubning formasi» nominatsiyasiga, xorazmliklar «Eng faol jamoa», Qashqadaryo viloyati jamoasi «Eng yaxshi tashkil etilgan ko'rgazma», Toshkent viloyati vakillari «G'alabaga ishtiyiqi uchun», Surxondaryo viloyati jamoasiga «Estafeta yo'nalishida eng yaxshi ko'rsatkichga ega jamoa» nominatsiyalari nasib etdi.

Faol ishtirokchilar ham alohida taqdirlanishdi.

Masrur SANAYEV

Namangan viloyatining Kosonsoy tumanida bir qishloq bor, uni «Uzun qishloq» deb atashadi.



KOMILLIK SARI

Biz hikoya qilmoqchi bo'lgan tengdoshingiz 48-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi Komiljon Tursunboyev shu qishloqda tug'ildi. Bobosi Tursunboy aka va buvisi Tojixon aya nabiralarining kelajakda komil inson bo'lib ulg'ayishini niyat qilib, unga Komiljon deb ism qo'yishdi. Otasi Ne'matjon aka tasviriy san'at o'qituvchisi bo'lganligi bo'smi, u bolaligidan rasm chizishga ishtiyiqi baland bo'lib o'sdi. Komiljon boshlang'ich sinfdaligidayoq turli tanlovlarda chizgan rasmlari bilan ishtirok etdi. Dastlab mo'yoqalam bilan ishlashni o'zlashtirdi. Ota va farzandning birgalikdagi tinimsiz mehnatlari tez orada o'z natijasini ko'rsatdi. O'tgan yillarda rangtasvir yo'nalishi bo'yicha o'tkazilgan tadbirlarda yetakchi o'rinlarni egalladi. Qalamtasvir, rangtasvir, natyurmort, naqqoshlik, suv bo'yog'i, portret, manzara janrlarida o'zini sinab ko'rdi. O'tgan uch yil mobaynida iqtidorli bolalar ko'rik-tanlovining naqqoshlik, tasviriy san'at yo'nalishlari hamda «Kamalak yulduzlari» bolalar ijodiyoti festivali viloyat bosqichida «Ye» yo'nalish bo'yicha 1-o'rinni egallab, sertifikat bilan taqdirlandi. «Biz obod yurt farzandlari», «Yosh musavvirlar», «OITSsiz kelajak sari», «Vatanimni madh etaman» shiorlari ostida o'tkazilgan tanlovlarda ham g'oliblikni qo'lga kiritdi. Bundan tashqari, «Ajdodlar qahramonligi yoshlarga librat» mavzusida o'tkazilgan devoriy gazetalar respublika tanlovida faol ishtirok etdi.

Bobo va buvining orzulari ushalmog'da. Komiljon singari yoshlar o'z bilim va salohiyati bilan ertangi kunning ziyo misol yoritishi, shubhasiz.

Nozima QUDRAT qizi

DAM OLAMIZ, HUNAR O'RGANAMIZ

Navoiy viloyatida bugungi kunda 11 ta «Barkamol avlod» bolalar markazlari faoliyat ko'rsatmoqda.

Ayni ta'til kunlarida ushbu maskanlar o'quvchilar bilan yanada gavjum.

– Maktabdan tashqari ta'limga qo'yilgan Davlat talablari asosida viloyat bo'yicha uch yo'nalishda, 36 turdagi jami 169 ta to'garaklar tashkil etildi, – deydi biz bilan suhbatda «Barkamol avlod» bolalar markazi rahbari Mashrabjon Toshov. – To'garaklarga 169 nafar mutaxassis-pedagog xodimlar jalb qilingan bo'lib, ularga qatnaydigan o'quvchilar soni 3807 nafarni tashkil etadi.

Mashg'ulotlarni sifat-samaradorligini oshirish, to'garak a'zolarini mavzularni o'zlashtirishlarini ta'minlash maqsadida to'garak rahbarlari o'rtasida «Ustoz-shogird» faoliyati yo'lga qo'yilgan. Iste'dodli, iqtidorli o'quvchilarni qo'llab-quvvatlash, rag'batlantirish, ularning qobiliyatlarini rivojlantirishga ko'maklashish maqsadida maktab, mahalla, ota-onalar hamkorligida turli tadbirlar tashkil etilmoqda. Bunga javoban o'quvchilarimizning ham talaygina tanlovlarda qo'llari baland kelmoqda. Jumladan, «Umid nihollari» raketamodel ochiq chempionatining Respublika birinchiligida viloyat markazi raketamodel to'garagi a'zosi Ravshan Raupov, «Sog'lom turmush tarafdorimiz» sirtqi tanlovda Qiziltepa tumani BAMB to'garagi a'zosi Binafsha Nurillayeva, «Yashil sayyoramiz taqdiri o'z qo'limizda» tanlovida esa Navbahor tuman BAMB to'garak a'zosi Charos Ismatova, «Mening qadrdon o'rmonim» xalqaro bolalar rasmlari tanlovida shu to'garak a'zosi Suhrob Haydarov, «Sog'lom oila –

sog'lom bola» fotorasmlar tanlovida VBABM to'garak a'zosi Sardor Bahronov, «Mustaqillik mening taqdirimda» bolalar festivalida VBABM to'garak a'zosi Jahongir Aslonov 1-o'rinlarni egalladilar.

Quvonarlisi, «Milliy raqslar», «Zarb – 2015» yosh doirachilar tanlovlarining Samarqand, Buxoro, Navoiy viloyatlari o'rtasida hududiy bosqichlarida «Milliy raqslar» tanlovida vakillarimiz 1-o'rinni egalladilar.

Bizning «Barkamol avlod» bolalar markazidagi o'quvchilar bundan-da yuksak natijalarni qo'lga kiritishlariga ishonchimiz komil.

Aziz bolajonlar, mana, navoiylik tengdoshlaringizning bugungi hayoti haqida tanishdingiz. Siz ham viloyat yoxud tumaningizda tashkil etilgan «Barkamol avlod» bolalar markaziga qatnaysizmi? Unda egallayotgan hunaringiz orqali erishayotgan yutuqlaringiz haqida bizga ham yozib yuboring.

Ozoda TURSUNBOYEVA

XAT YOZISH ZAVQI

Bir kuni onam bilan kutubxonamizdagi kitoblarni tartibga solayotib, bir kitobning ichidan maktub topib oldik. Uni bobom safar paytida o'z qo'li bilan yozgan ekan. O'shanda onam 10 yoshda bo'lgan. Onam bu xatni qandaydir hayajon bilan o'qidi. Maktub shunday satrlar bilan boshlangan edi:

«Salom, mening aziz oila a'zolarim! Men manzilingga eson-omon yetib keldim, kelganimda, bu yerda havo +24°, yomg'ir tinmay yog'ayotgan ekan, to'g'risini aytсам, hali oradan ko'p vaqt o'tmagan bo'lsa-da, sizlarni juda-juda sog'indim, ertaga Sarvarning tug'ilgan kuni, u 13 yoshga Unga yana ham hurmat bilan munosabatda bo'lsangiz...»



deya yana ko'plab oila a'zolari uchun tegishli gaplarni yozgan ekan. Bu xatni o'qigach, onamning ko'zleri boshqacha chaqna ketdi. Sababini so'rasam, «Bolaligimga qaytganday bo'ldim», dedi. Shundan so'ng meni ham kingadir xat yozgim keldi. To'g'risini aytсам, biror odamga o'z qo'lim bilan xat yozmagan ekanman, o'ylab-o'ylab Toshkent viloyati, Ohangaron tumanida yashovchi qarindoshimiz Ne'matilla ota Do'stmuhammedovga maktub yozdim va pochta orqali yubordim. Oradan 5 kun vaqt o'tib, javob xati keldi. Ne'matilla ota xatni o'qigach, mendan bunday xat kutmaganligini va xursand bo'lganini yozib, turli xil fotosuratlarini yubordi. Men xursand bo'lib ketdim va maktubni onamga ko'rsatdim. Onam ham quvonib ketdi. Men ularga tez-tez xat yozib turadigan bo'ldim. Xat yozish qanchalar maroqli ekanligini ana shunda anglab yetdim. Men endi barcha javob xatlarini yig'ib qo'ymoqchiman.

E'zoza MUHAMMEDOVA,
poytaxtimizning Uchtepa tumanidagi
193-umumta'lim maktabining 7-«D» sinf o'quvchisi

Prezidentimiz mazkur yilni «Keksalarni e'zozlash yili» deb e'lon qilganlariga ham olti oy to'lyapti. Bu qisqa vaqt ichida qanchadan qancha ezgu ishlarga qo'l urildi.

KO'PNI KO'RGAN KEKSALAR

Bugungi kunda ularning sog'lom va baxtli hayot kechirishlari uchun barcha shart-sharoitlar muhayyo qilingan. Mening buvijonim ham garchi 63 yoshni qarshilayotgan bo'lsa-da, doimo g'ayratli. Ular bizni kelajakda yetuk inson bo'lishimizni istaydilar. Shu sababli menga va ukalarimga: «Har doim, har yerda da, sizlarni juda-juda sog'indim, ertaga Sarvarning tug'ilgan kuni, u 13 yoshga Unga yana ham hurmat bilan munosabatda bo'lsangiz...»



Iroda RAHMONALIYEVA,
Toshkent viloyati, Chinoz tumanidagi 22-umumta'lim
maktabining 7-sinf o'quvchisi

ADASHMAGAN EKANMIZ

Men rasm chizishga juda qiziqaman. Shu sababdan gazetadagi har bir chizilgan rasmlarni diqqat bilan kuzataman.

Biz sinfimiz bilan, mana 3 yildirki, gazetaning har bir sonini miriqib o'qiyamiz. Sinf rahbarimiz Sharofat opa Sultonova bu gazetani bolalarning eng yaxshi nashri, ta'lingizda ham muntazam o'qib boring, deganlarida, adashmagan ekanlar.

Fursatdan foydalanib, barcha o'quvchilarga ta'lingiz maroqli va mazmunli o'tishi o'z qo'lingizda, deyman.



Munisa GANJAYEVA,
Xorazm viloyati, Yangiariq tumanidagi
5-umumta'lim maktabi o'quvchisi

Manzura opa bugun ishdan har kungidan ertaroq qaytdi. Choy ichmoqchi bo'lib dasturxon yozgan ham ediki, tashqaridan ayol kishining baland ovozi eshitildi. Nima gapligini bilish uchun qo'lida sochig'i bilan eshik tomon yurdi. Hovli yo'lida bir ayol vajohat bilan turardi. Unga ko'zi tushishi bilan darrov eshladi: bu ayol ko'cha boshidagi uyga yangi ko'chib kelgan qo'shnisi.

– Menga Aziz degan bola kerak. Shu uyda turadi, deyishdi, – bepisand so'radi ayol.

– Yaxshimisiz, keling qo'shni, tinchlikmi, men uning oyisiman, – dedi Manzura opa xavotirini yashirib.

Onaning xotirjamligi ayolni battar jahlini chiqardi.

– Qilar ishni qilib, indamay turishini qarang bu ayolning!

– Tushuntiribrog gapiring, qo'shni. Nima gap, o'g'lim biror nojo'ya ish qildimi?..

– Qachondan beri o'g'lingiz ko'chadagi bolalarni odobga chaqiradigan bo'lib qoldi?

– Kechirasiz, sal sekinrog gapirsangiz, – dedi Manzura opa xotirjamlik bilan mayin ovozda. U salga qon bosimi ko'tarilib ketadigan yon qo'shnisining bu shovqinni eshitib qolishidan cho'chidi.

– Voy, siz kimga aql o'rgatyapsiz, kimligimni bilasizmi o'zi? Men duch kelgan kishining bolamga



OQIBAT

dashnom berishini ko'tarolmayman.

Shu payt qo'shni xonadonda yashovchi keksa onaxonning Manzura opa chaqirgan ovozi eshitildi. Ammo shovqindan bezovtalandi chog'i, onaxonning o'zi ohista yurib chiqdi.

– Manzuraxon, tinchlikmi, bolam? Biroz mizg'ib olay, deb yonboshlagandim, qulog'imga shovqin kirganday bo'ldi. Shunga xabar olay dedim.

Manzura opa onaxonni bezovta qilganidan xijolat

O'ramizdagi odamlar

bo'lib astagina supachaga o'tqizdi. Boya damlagan choyidan bir piyola quyib uzatdi. Kutilmagan tashrifdan o'zini noqulay sezgan ayol onaxonning so'zlaridan ta'sirlandi chog'i, sal nariroqqa borib turdi.

– Qo'shni, boringizga shukur, – dedi onaxon o'r'nashibroq o'tirib olarkan. – Yaxshiyam sizlar borsiz. O'g'lingiz ham katta bo'lib, koringizga yaraydigan bo'lib qoldi.

Umri uzoq bo'lsin, kerak paytda, yolg'izligimni bildirmaydi, kuniga uch-to'rt marta xabar oladi. Kecha maydonchaga chiqqandim, bolalarning futbol o'yinidan qon bosimim oshdi chog'i, mazam qochib uyga kirmoqchi bo'ldim. Ko'z oldim qorong'ilashib o'tirib qoldim. Shu damda kelib qolgan Azizbek jonimga oro kirdi.

Unga suyanib uyga yetdim. Baraka topkur tashqaridagi shovqinni ham bir zumda tinchitib keldi. Uzoq duo qildim.

Shu damda Azizekning ko'chadagi bolalarni bemor onaxonning tinchligini o'ylab tartibga chaqirganini bilgan ayol qilgan ishdan xijolat bo'ldi. Mehr rishtasi osmonga bo'ylashib borayotgan daryodil qo'shnilar oqibatiga ich-ichidan havasi keldi...

– Manzuraxon, tinchlikmi, bolam? Biroz mizg'ib olay, deb yonboshlagandim, qulog'imga shovqin kirganday bo'ldi. Shunga xabar olay dedim.

Manzura opa onaxonni bezovta qilganidan xijolat

Manzura opa onaxonni bezovta qilganidan xijolat

Nodira NAZAROVA

Davlatimiz rahbarining «Bolalar musiqa va san'at maktablarining moddiy texnik bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini yanada yaxshilash bo'yicha 2009–2014-yillarga mo'ljallangan Davlat dasturi to'g'risida»gi Qarori yosh iste'dodlar safining yanada kengayishiga yo'l ochdi.

Poytaxtimizning Mirzo Ulug'bek tumanida joylashgan 20-musiqa va san'at maktabi o'quvchisi Zarina Jabborova ham ana shunday iste'dodlardan biri.

YURT MADHINI KUYLAR QIZALOQ

Mazkur maktab tashqi ko'rinishi bilanoq ko'plab san'at ixlosmandlarini o'ziga jalb qilyapti. Yangi o'quv va musiqiy anjomlar bilan ta'minlangan ushbu dargohga 11 yildirki, Malohat opa Agayeva rahbarlik qiladi. Turli yoshdagi kuy va qo'shiq ixlosmandlari 45 nafar pedagog va konsertmeysterlardan san'at sirlarini puxta o'rganishyapti. Ko'plab tanlovlar, ko'rgazmalarda muvaffaqiyatli ishtirok etib, ustozlari ishonchini oqlashyapti, mehnatlari, chekkan zahmatlarini yuzaga chiqarishyapti. Bir so'z bilan aytganda, davlatimiz tomonidan ular uchun yaratilayotgan imkonlarga, shart-sharoitlarga munosib javob qaytarishyapti.



Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumanidagi 256-umumta'lim maktabining 2-sinf o'quvchisi Zarina Jabborova ham ana shu maktabning umidli o'quvchilaridan.

Oilaviy muhit ta'siridanmi, qizaloq juda kichikligidanoq san'atga mehr qo'ydi. Bugungi kunda Abduqahhor Abduqodirov, Linura Velyulyayeva kabi ustozlar qo'lida an'anaviy xonandalik hamda vokal estrada yo'nalishi bo'yicha tahsil olayotgan Zarining qo'lga kiritayotgan yutuqlariga ko'pchilik dugonalari havas qilishyapti. «Kamalak yulduzlari» bolalar ijodiyoti festivalining respublika bosqichida faol ishtirok etgani uchun O'zbekiston

Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining maxsus diplomi hamda qimmatbaho sovg'alarini qo'lga kiritdi. Yaqinda bo'lib o'tgan «Yagonasan, muqaddas Vatani!» ko'rik-tanlovining shahar bosqichida Gran-pri sohibasi bo'ldi.

Ko'pincha oilaning nufuzi unda ulg'ayayotgan farzandlar kamoli bilan belgilanadi. Shu ma'noda, Fotima-Zuhra va Zarina ismli iqtidorli opa-singillar kamol topayotgan oilaning mahallada obro'si baland. San'atsevar qizlarning erishayotgan yutuqlarida ularning mehribon buvijonisi Malohat opa Nazarovanning ham xizmatlari beqiyos. Farzandlari, nabiralarning qiziqish va intilishlarini qo'llab-quvvatlaydigan ot-onalarimiz, buva va buvjonlarimiz qancha ko'p bo'lsa, iqtidorlilar safi ham kengayaveradi.

Darvoqe, Zarina Jabborova san'atkorlar sulolasining kenja vakilasi. Dadasi Akmal Jabborov, onasi Zahro Abdunazirova san'atkor. Qizaloq ham ota-onasi kabi san'atkor bo'lishni, go'zal Vatanimiz madhini o'zga yurtlarda tarannum etishni orzulaydi. Zero, san'at millat tanlamaydi, chegara bilmaydi. Yaxshi qo'shiq qaysi tilda kuylanmasin, san'atga oshufta qalblarni maftun etadi.

DO'STLIK rishtalari mustahkamlanib boraversin

Do'st haqida gapirar ekanmiz, unga har kim har xil ta'rif beradi. Kimdir og'ir kunda suyanchiq bo'la oladiganlarni do'st deb bilsa, yana biron hech kimga ayta olmaydigan pinhona sirlarini ayta oladigan, uni qalbidan saqlashga qodir va o'z navbatida aqli maslahatgo'ylarni do'st deya tilga oladi. Hech bir inson yo'qki, yaxshi do'stga muhtojlik sezmagani. Do'st tanlashda aslo adashmaslik kerak.

Ulug' ajdodimiz Mahmud Zamaxshariy bu haqda: «Bu dunyoda do'st tutinadigan kimsalar faqat va faqat mard va jo'mard, qo'li ochiq kishilardir. Mana shunday do'stlarning do'stligi bilan xasta ko'ngillar shifo topadi. Siniq suyaklar sog'lomlikka, to'g'rilikka erishadi, ya'ni bukilgan bellar to'g'rilanadi. Ta'minlay olmagan ehtiyojlaringni bular ta'minlaydilar. Sening dard va mashaqqatlarining sendan uzoqlashtiradilar, ko'ngillarni ravshan qiladilar», deya ta'riflagan. Shunday ekan, do'stlik sizning mehr-oqibatingiz, vafobulog'ingiz bilan sug'orilib, yanada chiroy ochib, ko'rkamlashib, mustahkamlanib boraversin.

Nodira ARSLONOVA

Feruz JALILOVA



UMMON OSTIDAGI JAVOHIR

Alisher Navoiy hayoti va ilmiy merosini o'rganish, uning noyob asarlari mohiyatini anglash, badiiyatining ochilmagan qirralarini kashf qilish navoiyshunos olimlardan ulkan kuch-g'ayrat va shijoat talab etadi.



Navoiy asarlari tubsiz ummon tagidagi noyob durga o'xshaydi. Unga erishish kitobxondan juda katta mehnat talab qiladi. Shoir va olim Bobomurod Eralining buyuk bobomiz merosini o'rganish borasida olib borayotgan yangi tadqiqotlari bugun ko'pchilikning e'tiborida.

«Akademnashr» nashriyoti tomonidan chop etilgan «Majozii muhabbat haqiqatlari» risolasi Alisher Navoiy asarlariga chuqurroq yondashuvi va sharhlari bilan yanada qimmatlidir. Tadqiqotchining yangi asari buyuk zot ijodiga qiziqqan barcha o'quvchilarga munosib tuhfa bo'ldi.


O'z muxbirimiz

JAYHUNNING YANGI MAVJLARI

Xorazm viloyatining Urganch tumanidagi 43-umumta'lim maktabining 4-«A» sinf o'quvchisi Jur'atbek Xudoyberganov bilan G'afur G'ulom bog'ida o'tkazilgan «Kitob bayrami»da tanishib qoldik.

Uzoq yillar maktabda o'qituvchilik qilib, hozirda nafaqaga chiqqan Go'zalxon aya Rahimova nabiralari Jur'atbek va Jamilaxonga «Sizlarni ammingiznikiga olib borib, poytaxtni bir aylantirib kelay», deya Toshkentda istiqomat qilayotgan qiznikiga mehmonga kelishibdi. Mezbnonlar va mehmonlar azim shahrimizning eng fayzli go'shalarini aylanishibdi.

Kitobni o'ziga chin do'st deb bilgan Jur'atbek o'qishni nihoyatda yaxshi ko'rar ekan. Tahririyat xodimlari bilan bo'lgan uchrashuvda Hamid Olimjonning «O'zbekiston», Muhammad Yusufning «Menga bering» she'rlarini to'raligicha yod aytib berdi. Nazmga bo'lgan havas o'zini ham she'r yozishga undagan bo'lsa, ajab emas. She'rlar yozishni mashq qilayotgan Jur'atbekka Ismoil og'a Olloberganov ustozlik qilib, ijod sirlarini



o'rgata boshladi. Yosh shoirning «Birinci muallimim», «Kitob», «Onajonim» kabi ijod namunalari «Xorazm ziyokori» gazetasida chop etilib, tengdoshlari o'rtasida katta qiziqish uyg'otdi.

– Poytaxtimizdagi «Kitob bayrami»da qatnashib, katta taassurotlar oldim.

Xudoyberdi To'xtaboyev, Tursunboy Adashboyev, Dilshod Rajab kabi bolalar ijodkorlari bilan yuzma-yuz ko'rishganimdan nihoyatda xursandman, – deydi biz bilan suhbatda xorazmlik mehmonimiz. – Bu yerda tashkil etilgan ko'rgazmada yangi kitoblardan xarid qildik. Toshkentda ko'rganlarim haqida o'rtoqlarimga ham so'zlab beraman.

Jur'atbek «Bilimlar bellashuvi»da ona tili fani bo'yicha qatnashib, tumanda 2-o'rinni egallabdi. Husnixat bo'yicha «Kimning xati chiroyli?» ko'rik-tanlovining tuman bosqichida ham faxrli 2-o'ringa loyiq topilibdi.

Yosh qahramonimiz taekvando WTF va shaxmat turi bilan jiddiy shug'ullanar ekan. Tumandagi «Pahlavon Mahmud» sport maktabida murabbiyi Sardor aka Yo'ldoshevdan taekvando sirlarini o'rganib kelyapti. O'tgan yili Urganch tumanidagi 2-BO'SM ochiq birinchiligida ishtirok etib, faxrli 2-o'rinni egallabdi. Shuningdek, u umumta'lim maktab o'quvchilari o'rtasida o'tkazilgan «Kamolot» shaxmat taxtasi» musobaqasining ta'lim muassasasi bosqichida faol ishtiroki uchun faxriy yoriq bilan taqdirlanibdi.

Har tomonlama ilg'or, izlanuvchan yosh do'stimiz bilan xayrlashar ekanmiz, unga o'qish-ishlarida omad yor bo'lishini, «Kitob» kabi chiroyli she'rlari yanada ko'payishini istadik.

Dilorom HOTAMOVA

YUTUQLARDAN KO'NGLIMIZ SHOD

endi navbat ta'tilga

Mamlakatimiz umumta'lim maktablarida o'quv yili yakunlanib, bitiruvchilar davlat imtihonlarini endigina topshirib bo'lgan kunlarda boshlang'ich sinf o'quvchilari allaqachon oromgohlar qo'ynida dam olishni boshlab yuborishgan. O'quv yili davomida ta'lim tizimida amalga oshirilgan ishlar ko'lami va ta'til rejalari bilan yaqindan tanishish maqsadida Jizzax viloyati, Paxtakor tumanidagi XTMFMT va TE bo'limi mudiri Mamasoli ALQAROVga murojaat qildik.



– Joriy o'quv yilida ta'lim tizimida ko'plab xayrli ishlar amalga oshirildi. Keling, avval o'quvchilarimiz yutuqlaridan boshlay. Umumta'lim fanlari bo'yicha fan olimpiadalarida 248 nafar o'quvchi ishtirok etgan bo'lsa, shundan 40 nafari viloyat bosqichida qatnashdi. Viloyat olimpiadasida 1-umumta'lim maktabidan ikki nafari biologiya va fransuz tili fanidan, 9-umumta'lim maktabidan bir o'quvchi informatika fanidan 1-o'rinni egalladi.

Mart oyida o'tkazilgan «Yilning eng yaxshi metod birlashmasi» ko'rik-tanlovida 12-umumta'lim maktabining tabiiy fanlar yo'nalishi bo'yicha metod birlashma rahbari Zebo Jiyanova 1-o'rinni qo'lga

kirirdi. «Yilning eng yaxshi metodika kengashi» tanlovida esa 1-umumta'lim maktabi o'qituvchisi Norsuluv Normatova g'olib bo'ldi. An'anaviy tarzda o'tkazib kelinayotgan «Yilning eng yaxshi fan o'qituvchisi» ko'rik-tanlovi ham tumanimizdagi ko'plab iste'dodli ustozlarni kashf etdi. Tanlovning viloyat bosqichida 1-o'rinni egallagan 8-umumta'lim maktabining rus tili fani o'qituvchisi Nasiba Mirzayeva, 12-ta'lim muassasasi nemis tili fani o'qituvchisi Gulsara Nurmanova hamda 31-IDUM fizika fani o'qituvchisi Adolat Abdurasulova mamlakat miqyosida ham faol ishtirok etdi. Bu kabi ilg'or o'qituvchilarimiz ishlari tumanda ommalashtirilib, yosh o'qituvchilarga

qo'llanma sifatida tavsiya etildi.

Yozgi ta'til davomida o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkillashtirish maqsadida 31-ixtisoslashtirilgan, 4-, 6-, 11-umumta'lim maktabida 350 nafar o'quvchiga mo'ljallangan yozgi sog'lomlashtirish kunduzgi oromgohlari faoliya: olib bormoqda. Ayni chog'da, oromgohlarda chat tili to'garaklari mashg'ulotlariga malakali mutaxassislar birlashtirildi. Mavsumda maktab kutubxonasi yangi nashrdan chiqqan adabiyotlar bilan boyitildi.


Nurbek QIDIRALIYEV,
Bahriiddin SHAYVALIYEV

Lesson 40

SEPARATE THE SYNONYMS

(Sinonimlarni ajrating)

Glad, kind, joyful, friendly, cheerful, loving, jolly.



Ingiliz tilini o'rganamiz! Let's learn English!

CIRCLE THE DIFFERENT WORD

(Noto'g'ri so'zni belgilang)

Circle the word you think is different. Write down your reason for choosing that word.



1. Boy, Female, Woman, Girl
2. Shoe, Sandal, Glove, Boot
3. Lake, Forest, Ocean, River
4. Seat, Wheel, Door, Oven
5. Chair, Seat, Table, Sofa
6. Happy, Grumpy, Joy, Excited
7. Rice, Pork, Chicken, Beef
8. Eye, Radar, Level, Star

DONO

SUMMER VACATION CROSSWORD

(«Yozgi ta'til» krossvardi)

Can you find these words from this box? Summer, vacation, beach, pool, fun, ball, park, swim.

S	B	D	P	O	O	L	K
F	U	N	M	D	P	T	N
O	N	M	B	A	L	L	Y
S	W	I	M	I	E	P	M
N	V	Z	B	E	A	C	H
S	E	Q	P	A	R	K	R
V	O	C	A	T	I	O	N

QUESTIONS FROM GEOGRAPHY

(Geografiyadan savollar)

1. What is the name of the biggest ocean on Earth?
2. What is the capital of Australia?
3. What is the name of the highest mountain on Earth?
4. Stratus, cumulus, cirrus and nimbus are types of what?
5. What is the name of a person who studies earthquakes?



Dinora SHAKIROVA tayyorladi

FIND ONE COUNTRY

Tushib qolgan harflardan so'z hosil qiling.

- Mo_ntain
- Ga_el
- Ba_y
- P_ace
- _ind
- Hol_day
- _mile
- Whea_
- Hum_nitarian
- I_dependence



Mohir TOSHMUHAMMEDOV,
O'zMU qoshidagi 1-akademik litseyi o'quvchisi

CHECK YOURSELF

(O'zingizni sinab ko'ring)

1. Book –
 2. The national anthem of Uzbekistan –
 3. Layla and Majnun –
 4. Bread –
 5. The glass –
- was composed by Mutal Burhonov.
– is made from sand.
– is made from flour
– is made from paper.
– was written by Alisher Navoiy.



Subhidam SAYFULLAYEVA,
O'zDJTU qoshidagi 1-akademik
litseyi o'quvchisi



USTOZ VA SHOGIRD
(Quddus Muhammadiyni xotirlab)

Quddus bobo guring boshlar, Maqol bilan, matl bilan. Mir Alisher «Qush tili»ga, Jon kiritgan masal bilan. Mayiz bilan yong'oqni Hovonchada tuyib bo'lgach, Asalga qorishtirib, Pamil choydan quyib bo'lgach: – Mehmon «Quyosh holvasidan», – Deydi: – Qani, ko'ring baham. Shogird «bola» sal tortinchoq, Aytolmaydi: «Yo'q ishtaham». U tongdagi poyezd bilan, Kelgan shahri azimga. Ulug'larni ziyorat – Qilmoq asli lozim-da. Mehmon bilan mezbon ikkov Choyni ichib saharda, Salor bo'yab shahar tomon, Otlanishdi safarga. Qamashiilik shoir darhol Mashqlarin etaklab. Sakson yoshli Quddus bobo, Shogirdini yetaklab. Yo'l-yo'lakay tanish-bilish, Do'stlar bilan ko'rishib, Nashriyotga yo'l olishdi, Uzun-qisqa bo'lishib. Ustoz odatdagiday, Yo'lga tushar piyoda. Saodat Tojining ham Yo'rg'alashi ziyoda. Talay gazet-jurnalga, Kirib-chiqib «ovlashdi». Yangi she'rdan ulashib, Eskilarin dovlashdi. Quddus bobo ortidan, Shogird chopar hakillab. Boz ustiga havo dim, Tomoqlari taqillar. Ustoz tetik va bardam, Burro terma aytadi. Yodga olib Mashrabni, Shoh Boburga qaytadi. Yayov yurib boboning Kayfiyati chog'landi. «Gulxan» bilan «G'uncha»ga, Endi yo'li bog'landi. Quddus bobo binoga Kirar o'yab o'tirmay. Odimlaydi zinadan, Dam olmayin, tutilmay. Shogird liftga ilashdi, Yo'lda horgan sepilni. Ustoz kutar tepada, Qo'lda do'ppi, yelpinib. Shoirlkning tashvishin, Faqat shoir biladi. Yetmish yoshli shogirdga Ustoz oq yo'l tiladi. Quddus boboning mehri, Yorqin nurga aylandi. Shogirdning ishi bitdi, Qishlog'iga shaylandi. – Yo'q, ketmasam bo'lmaydi, Qudamizning to'yi bor. Qolmishiga ovulda O'nta farzand intizor. Shoir akam bir kunda, Talay ishga ulgurdi. Oqshom tungi poyezddan Qolmayin, deb yugurdi...

SHUNCHALAR BUYUK...

Qadim zamonlardan bizlarga meros, Ustozlar qoldirgan ilm-u ma'rifat. Eng ezgu xislatlar ular uchun xos, Ular-chun kashfiyot yuksak fazilat.

Hayrat-la boqurmiz bugun keksa, yosh, Butun olam ahlin qoldirurlar lol. Ularning shuuri bizlarga yo'l bosh, Kunduzi quyoshdir, tun mahal hilol.

Gar alar moziydan sochmasa ziyo, Ilm-u fan sathida otarmidi tong. Hamon kecha-kunduz etib iltijo, O'qi, o'rgan deya urmoqdalar bong.

Yuksak tog' bag'rida bir zarra misol, Bo'lsak-da, tosh emas, o'xshaylik zarga. Qaddimiz ko'tarib yurib bemalol, Ziyo tarataylik biz ham basharga.



Yillardan to'g'onlar qo'yilar ortga, Ey aziz ustozlar, qani endi siz? Qaynoq xotirangiz kuch berur bizga, Nahot bu olamda yo'qsiz o'zingiz?!

Maktab quchog'ida o'sdik, yayradik, Boshimiz silardi mehribon qo'llar. Sehringiz qudratin sezdik, angladik, Yuksak-yuksaklarga to hanuz yo'llar.

Shiddat-la oqarkan umr daryosi, Qolarkan olamda faqat ezgu ish. So'nmas mehringizning bo'lmas adosi, Hech poyon topmakan o'rganish, bilish.

Olamda nega-ki erishgan bo'lsak, Billingki, barchasi sizlar tufayli. Siz sochgan ziyodan yorug'dir yurak, Shunchalar buyukmi ustozlar xayli?!

Yayra SA'DULLAYEVA,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi

shundoq olma daraxtingin soyasi tushib turadi. Davronbek kattalarga salom berishni yaxshi ko'radi.

U hozir ham o'sha yerda mashinasini o'ynab o'tirgandi, ko'cha boshida katta bobosiga o'xshagan qariya ko'rinish qoldi. U hassasiga suyanib, bir-bir yurib kelardi. Davronbek shoshib qolmaslik uchun o'rnidan turdi. Kichkinagina ariqchalari ustidagi ko'prikchadan o'tib yo'lovchi tomon peshvoz chiqdi. Qo'lini ko'ksiga qo'yib: «Achchalommu alaykum», dedi shiringina qilib.

– E...e... Vaalaykum assalom, – ota Davronbekka bir-bir nazar tashlab oldi-da: – Barakalla, – deb qo'shib qo'ydi. Davronbekka bu so'z, ayniqsa, yoqib qoldi.

– Kimning nabirasisiz, bo'tam? – ota hassaga ikki qo'lini qo'yib, biroz oyoqlariga dam bergan bo'ldi.

– Jo'lpiqoy boboning. – Iye, iye, Zulfiqor boboni deng. Ko'p yaxshi bola ekansiz. Bobongizga salom ayting.

Davronbek otaning uzoqroqqa ketishini ham kutmay, uyga chopqillab kirib ketdi.

(Davomi keyingi sonda)


Samarqand viloyati, Qo'shrabot tumanidagi 35-umumta'lim maktabining «Nishona» adabiy to'garagi a'zolari ijodidan namunalar:

OILAMIZ KO'RKI

Oyim qordilar xamir, Kulcha yopdi bir tandir. Kulchalaridan yedim, «Buncha mazali», dedim.

Buvim yozdi dasturxon, Ushatdilar shirmoy non. Shirin taomni yedik, Oyinga «Rahmat», dedik.

Mahliyo ISROILOVA,
5-«A» sinf o'quvchisi



TEMIRYO'LCHI BO'LAMAN

Qaniydi, tezroq katta bo'lsam-u, ota-onamga yordamim tegsal O'qib-o'rganib, hozirdanoq o'z dunyomni yaratmoqchiman. Ulkan imkoniyatlar mamlakatida yashayapmiz. Hech narsadan kamimiz yo'q. Kundan kun rivoj topib borayotgan davlatimiz ravnaqiga men ham o'z hissamni qo'shsam, deyman.

Kelgusida temiryo'lchi bo'lib, olis manzillarni yaqin qilishni istayman. Bobo-momolarimiz duosi oltindan-da qimmat ekan, unga erishish va munosib bo'lish uchun astoydil harakat qilaman. Zero, buvijonim duolari orzumga erishishim yo'lida ulkan daldadir.

Rushana SODIQOVA,
5-«A» sinf o'quvchisi



SINFDOSHIM – SIRDOSHIM

Sirdoshim, safdoshim, Sabrim saroyida bardoshim, Sen borsan, saroblar sinadi, Kiftingda yuksalgan baxtning qoyasi.

Sening-la tug'ilgan mehr go'yoki, Qahhoratga berguvchi bardosh, Ko'ngilda sohir qush sinfdosh, Nechun kipriklarda saf tortmoqda yosh?!

Zebuniso ABDUALIMOVA,
9-«A» sinf o'quvchisi



Eshigi oldida taxta o'rindig'i bor hovlida Davronbek yashaydi.

Davronbek har kuni katta bobosi bilan bab-baravar turib oladi. Katta bobosi – adasining buvajonis. Davronbek u bilan birga yuz-qo'lini yuvadi, yaxshilab artinadi. Ayniqsa, bobosi fотиha o'qiyotganida mittigina qo'llarini ochadi. Uni duo qilganida yayrab ketadi. «Davronbek katta yigit bo'lsin, yurtga yaraydigan polvon bo'lsin». Fotihasing oxirida bobosi Olohdan yurtga tinchlik so'raydi.

Shunaqada Davronbek katta bobosidan so'rab qoladi: «Tinchliy nima?» Bobosi esa miriqib javob beradi:

– Sen bilan biz kechasi mazza qilib uxlaymiz, hech kim bezovta qilmaydi, yana otang, onang bemalol ishga borib keladi, men qachon kelisharkin, deb xavotirlanmayman.

– Hm..., – deb qo'yadi Davronbek tushungandek bo'lib.

– Yana-chi, o'rtoqlaring bilan bemalol, hech narsadan qo'rqmay o'ynayverasan. Tinchlik degani shu.

Ular sekin hovliga chiqishadi. Katta bobosi, ayniqsa, rayonlarni silkitib yuborganda, uning xushbo'y hidi dimoqqa uradi. Chuqur-chuqur nafas olib, huzur qilishadi. Davronbek ko'cha eshik oldidagi o'rindiqda mashina o'yinchog'ini o'ynab o'tirishni yaxshi ko'radi. O'tgan-ketganlarni tomosha qiladi. O'rindiqqa



(Hikoya)



ANDREA PIRLONING KO'Z YOSHLARI

Orangizda futbolga qiziqmaydigan bolajonlar yuqoridagi sarlavhani o'qiboq, darhol «Pirlo kim?», «U nega yig'ladi?» deya ajablanayotgan bo'lsalar kerak-a? U holda quyidagi maqolamizni diqqat bilan o'qib chiqishni tavsiya qilamiz.

Yaqinda Germaniya poytaxti Berlin shahridagi muhtasham «Olimpiastadion» o'yingohi yilning eng muhim futbol bellashuvi – Yevropa chempionlar ligasining final uchrashuviga mezbonlik qildi. Unda Lionel Messi yetakchiligidagi Kataloniyaning «Barselona» klubi 12 yillik tanaffusdan so'ng ushbu nufuzli turnirning finaliga qadar yetib kelgan Italiyaning «Yuventus» jamoasiga qarshi maydonga tushdi.

«Yuventus» o'yinni hujumkor ruhda boshlab, raqiblarini ancha shoshirib qo'yd. Ammo qarshi hujumdan unumli foydalangan «Barselona» futbolchilari uchrashuvning to'rtinchi daqiqasidayoq tezkor gol kiritishga muvaffaq bo'lishdi.

Ikkinchi bo'lim ham Italiya jamoasining hujumlari bilan boshlandi. Va ana shu urinishlardan biri ularga foyda keltirdi. O'yinning 55-daqiqasida darvozani aniq nishonga olgan Alvaro Morata oradagi farqni yo'qqa chiqardi. Ushbu goldan ruhlangan turinliklar shundan so'ng yana ko'plab hujumlar uyushtirishdi. Lekin bu ularga hisobdagi ustunlikni taqdim etmadi. Aksincha, «Barselona» a'zosi Lionel Messining o'yinning 68-daqiqasida boshlagan hujumini jamoadoshi Luis Suares muvaffaqiyatli yakunlab, kataloniyaliklarni yana oldinga olib chiqdi.

Ushbu goldan so'ng «Yuventus» jamoasi futbolchilari harchand urinishmasin, hisobni tenglashtirishning uddasidan chiqa olishmadi. Nihoyat, uchrashuvning ikkinchi bo'limiga qo'shib berilgan qo'shimcha daqiqalarning so'nggi soniyalarida braziliyalik yosh va iqtidorli hujumchi Neymar «Yuventus» darvozasini aniq nishonga olib, o'yinning yakuniy hisobini o'rnatdi: 3-1.

O'yindan so'ng turinliklarning mahoratlari yarim himoyachisi, tajribali futbolchi Andrea Pirlo ko'z yoshlarini tiyib tura olmadi. Hatto «Barselona» jamoasi muxlisari ham Pirloning yosh bolalardek ko'z yosh to'kishiga ich-ichidan achinishdi. Lekin bu o'yin. O'yinda esa muvaffaqiyat bilan birga mag'lubiyat ham bo'ladi.

Sa'dullo TURSINOV



Yoshlar o'rtasida sport kun sayin ommalashib borayotgan bir davrda umumta'lim maktablari o'quvchilarining bu sohada qo'lga kiritayotgan natijalari aytsa, arzigulik. Bu borada Jizzax viloyati, Zomin tumanidagi 6-umumta'lim maktabi yutuqlari talaygina.

SPORTCHILAR MAKTABI



1-o'rin, shashka bo'yicha Muxlisa Musurmonova o'quv yili davomida hududiy va tuman miqyosidagi rasmiy va o'rtoqlik uchrashuvlarida 1- va 2-o'rinlarni egalladi.

Yosh sportchilardan Maftuna Sannorova, Muhammad Meliboyev yaqinda bo'lib o'tgan stol tenisi musobaqalarida mutlaq g'oliblikni qo'lga kiritishdi. Shuningdek, 3-sinf o'quvchilaridan Azizbek Abdurasulov shaxmat, Samandar Saidvaliyev, O'g'iloy Shavkatova va Sarvina Ne'matovalar shashka bo'yicha «Alpomish va Barchinoy» tuman sport musobaqasida ishtirok etib, g'oliblar va sovrindorlar qatoriga qo'shilishdi.

Zarnigor MUSAYEVA

«Umid nihollari – 2015» sport musobaqasida

voleybol va gandbol bo'yicha o'g'il bolalar jamoasi tumandagi 75 ta maktab jamoalari o'rtasida 1-o'rin, viloyat bosqichida ham faxrli o'rinlarni qo'lga kiritdi. Mazkur musobaqada gandbol bo'yicha qizlar jamoasi tumanda 2-o'rinni egallashdi.

Shaxmat bo'yicha maktab o'quvchilaridan Abdulaziz Umrboyev, Javlon Umrzoqov «Xotira va qadrlash kuni»ga bag'ishlangan xotira turirida



ORZU OSMONIDA CHAQNAGAN HILOL

Hilola. Bu ism, endilikda, Oqoltin tumanida ko'pchilikka yaxshi tanish. Hozirda Sirdaryo pedagogika kollejida tahsil olayotgan bu o'quvchi o'z iqtidori bilan tengdoshlari orasida tezda tanildi. To'quvchilik va rassomlikka bo'lgan ishtiyoq uni yangiliklar sari yetakladi. Hilola bugungi kunda urfga kirgan qizlar libosi dizayni kolleksiyasini yaratishga ulgurdi. Bir-biridan go'zal she'rlar yozishini aytmayisizmi?! Lekin hozir gap bu haqdamas, iste'dod egasining sport sohasidagi yutuqlari xususida suhbatlashmoqchimiz.

Hilola bolaligidan stol tenisiya mehr qo'ydi. Jajji qizaloqning qo'lga tushgan har qanday yassi narsani raketkaday tutib, sharcha o'rini bosuvchi ro'zg'or mayda-chuydalarini duch

kelgan tomonga uchirayotganini ko'rgan Po'latjon aka va Mohira opa farzandini bir kun kelib, tennis mashg'ulotlariga berishni rejalashtirishdi. Mana, yetti yildirki, Hilola sportning bu turi bilan muntazam shug'ullanib keladi. Ilk ustoz Xolyigit Hakimovdan maktabda olgan saboqlarini hozirda kollej o'qituvchisi Shuhrat Po'latov murabbiyligida davom ettirmoqda. Yosh sportchining qo'lga kiritgan yutuqlari salmog'i ham ortib bormoqda. O'tgan yili 1994–1995-yillarda tug'ilgan qizlar o'rtasida o'tkazilgan Sirdaryo viloyati birinchiligida 3-o'rinni egalladi. Uning ishtirokidagi jamoa Xorazmda bo'lib o'tgan Respublika chempionatida ham 3-o'ringa loyiq topildi. 1998–1999-yilda to'g'ilgan qizlar o'rtasida «Kamolot malikasi – 2014» sport musobaqasining tuman bosqichida 1-, viloyatda 2-o'rinni qo'lga kiritdi.

Yaqinda bo'lib o'tgan viloyat kubogi qizlar

o'rtasidagi jamoaviy bahslarda 2-o'rinni egallagan sportchi Sirdaryo tuman o'rta-maxsus kasb-hunar ta'lim muassasalararo o'tkazilgan musobaqada 1-o'rin sohibi bo'ldi.



Maqola bilan tanishib, intilgan odam maqsadiga yetishiga guvoh bo'ldingiz. Sportchi qizga havasimiz kelgani aniq. Biz esa sizga ham havas qilishlarini istaymiz. Siz buni uddalaysiz.

Muhammadsodiq ALIMOV





O'yinqaroq va kulgisevar bolajonlar! Ta'til kunlari mazza qilib dam olib, maroqli hordiq chiqarayotgandirsiz-a?! Bu safargi ta'tilingiz yanada qiziqarli va mazmunli bo'lishi, shuningdek, ta'til davomida zerikib qolmasligingiz uchun «Quvnoq ta'til» sahifasini tashkil qildik. Sahifamizdagi she'rlarni yod olib, topishmoqlar-u boshqotirmalarni yechib, quvnoq hikoyalari, turfa mavzulardagi rasmlarni tomosha qilib, ko'nglingiz bahra oladi, degan umiddamiz. Ha, aytgancha, bu sahifada sizning maqolangiz ham chop etilishi mumkin. Buning yo'li oson: ta'til taassurotlari-yu mutolaa qilgan adabiyotlaringizning qisqacha mazmuni, chizgan rasmlaringiz, o'rganayotgan hunaringiz haqida bizga ma'lumot yuborsangiz, bas!

PAZANDA

Oyim dedi: – Aziza, Bu oqshom sen osh qilgin. Olovdan ehtiyot bo'!, So'zim quloqqa ilgin.

Aziza der: – Oyjion, Men uxlab dam olaman. Siz oshni pishirsangiz, Men laganga solaman.

Umida OYBEKOVA, poytaxtimizning Shayxontohur tumanidagi 20-umumta'lim maktabi o'quvchisi



TOPQIRLIK BAHSI

1	P	e	k	i	n					
2	g	o	h	i	r	a				
3	Y	e	r	e	v	a	n			
4	o	t	t	a	v	a				
5		A								
6	X	y	s	e	y					
7	T	o	s	h	k	e	n	t		
8	v	a	S	H	e	n	g	t	o	n
9	u	A	d	r	i	d				
10	t	e	H	r	o	n				
11		A								
12			R							
13			L							
14			A							
15			R	i	m					

- Xitoy.
- Misir.
- Armaniston.
- Kanada.
- Kongo.
- Vyetnam.
- O'zbekiston.
- AQSH.
- Ispaniya.
- Eron.
- Nepal.
- Polsha.
- Kuba.
- Italiya.

Anvarjon ABDULLAYEV, Qashqadaryo viloyati, Kitob tumanidagi 4-umumta'lim maktabi o'quvchisi

«Ona bug'u»



Andijon viloyati, Oltinko'l tumanidagi 37-umumta'lim maktabi o'quvchisi Zilolaxon MEHMONOVA o'qigan ertaklari asosida rasmlar chizib, bizga yuboribdi.

Samarqand viloyati, Urgut tumanidagi 54-umumta'lim maktabi o'quvchisi Ruxshona Bahodirova bo'sh vaqtlarida she'rlar yozishni, rasmlar chizishni yaxshi ko'rishini yozibdi. Uning ayrim rasmlari bizga ma'qul bo'ldi. Sizga-chi?



«Hashar»

OYOQ KIYIMINGIZ QULAYMI?

Yozning issiq paytida qanday oyoq kiyimlar kiygan ma'qul? Rezina poyabzalni har kuni kiyib yurish yaramaydi. Undan suv sepayotganda foydalangan ma'qul. Bu faslda mumkin qadar usti ochiq, tagi charm tuflari kiygan yaxshi. U o'zidan havoni va namni yaxshi o'tkazadi.

Poshnasi baland oyoq kiyim esa umurtqa pog'onasining qiyshayishiga, ichki a'zolarining o'rnidan surilishiga sabab bo'ladi.

Poshna balandligi bog'cha yoshidagi bolalar uchun 5-10 mm, 8-10 yoshli o'quvchilar uchun 10-20 mm, 13-17 yoshdagilarga 20-30 mm bo'lishi zarur. Muhimi, poyabzal oyoqni qismasligi, qon aylanishini qiyinlashtirmasligi, oyoqning tabiiy o'sishiga xalaqit bermasligi kerak.

MANZURA tayyorladi



Bosh muharrir
Feruza ADILOVA

TAHRIR HAY'ATI:
Omonulla YUNUSOV,
Abdug'ani XOLBEKOV,
Bahodir G'ANIYEV,
Svetlana INOMOVA,
Murtazo SULTONOV,
Zoir ISAJONOV,
Vahobjon RAJAPOV,
Zikrilla TESHABOYEV,
Feruza JALILOVA,
Feruz MATYOQUBOV
(mas'ul kotib)

Navbatchi
muharrir
Dilorom
HOTAMOVA
Rassom
Feruzbek
KAMOL o'g'li

Manzilibiz:
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100129.
Obuna indeksi: 198.
e-mail:
info@tongyulduzi.uz
www.tongyulduzi.uz

Tel/faks: 244-63-08
Tel/faks:
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston»
NMIUda chop etildi.
Tahririyatga kelgan barcha
qo'lyozmalar tahrir qilinadi,
mualliflarga qaytarilmaydi.
Haftaning dushanba kuni
chiqadi.
Shakli A-3, 2 bosma taboq,
ISSN 2010-6092
Adadi – 46002
Buyurtma – S 3164

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati
Markaziy Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga
qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya fondi.

Gazeta O'zbekiston Matbuot
va axborot agentligida
0208-raqam bilan 2007-yil
2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.